

ABU HOMID G‘AZZOLIYNING “MUKOSHAFATUL QULUB” ASARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Akram Jo‘rayev Namozovich

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti

“Falsafa” kafedrası o‘qituvchisi

Halilova O‘g‘ilshod Bekpo‘lat qizi

Termiz davlat universiteti “O‘zbet tili” yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada buyuk islom mutafakkiri Abu Homid G‘azzoliyning “Mukoshafatul qulub” asarining mazmun-mohiyati keng va tizimli tarzda tahlil qilinadi. Asarda qalb tarbiyasi, axloqiy poklanish, ixlos, taqvo, tavba, sabr va shukr kabi tushunchalarning inson hayotidagi o‘rni Qur‘on oyatlari va hadislar asosida yoritilgan. Muallif asar orqali inson qalbini ma‘naviy kamolga yetkazish yo‘llarini ko‘rsatib beradi. Maqolada ushbu asarning bugungi jamiyat va yoshlar tarbiyasidagi dolzarbligi ochib beriladi¹.

Kalit so‘zlar: “Abu Homid G‘azzoliy”, “Mukoshafatul qulub”, tasavvuf”, “axloq, “qalb tarbiyasi”, “ma‘naviyat”.

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье всесторонне анализируется содержание и сущность произведения великого исламского мыслителя Абу Хамида аль-Газали «Мукашафат аль-кулуб». В труде особое внимание уделяется воспитанию сердца, нравственному очищению, искренности, богобоязненности, покаянию, терпению и благодарности. Автор показывает пути духовного совершенствования человека на основе аятов Корана и хадисов. Также раскрывается значение данного произведения в духовно-нравственном воспитании молодежи в современном обществе.

Ключевые слова: Абу Хамид аль-Газали, “Мукашафат аль-кулуб”, суфизм, этика, воспитание сердца, духовность.

ABSTRACT

This scientific article provides a comprehensive analysis of the content and essence of the work “Mukashafat al-Qulub” by the great Islamic scholar Abu Hamid al-Ghazali. The book focuses on the purification of the heart, moral refinement, sincerity, piety, repentance, patience, and gratitude, based on the Qur‘an and Hadiths. The author highlights the ways of achieving spiritual perfection and

¹ Islom falsafasi tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2008.

emphasizes the importance of this work in the moral and spiritual education of young people in modern society.

Keywords: *Abu Hamid al-Ghazali, Mukoshafatul Qulub, Sufism, ethics, spiritual purification of the heart, spirituality.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda insoniyat ma'naviy inqiroz, axloqiy bo'shliq kabi muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Shu bois jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi alohida dolzarblik masala hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodni barkamol inson sifatida voyaga yetkazishda islomiy meros va buyuk mutafakkirlarning asarlari muhim ahamiyatga ega. Abu Homid G'azzoliy islom tafakkuri tarixida axloq, tasavvuf va falsafani uyg'unlashtirgan noyob alloma hisoblanadi. Islom olamining buyuk mutafakkirlaridan biri, Sharqda "Hujjat ul-Islom" rutbasi bilan mashhur bo'lgan Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy hijriy 450 (milodiy 1058) yili Tus shahrida tug'ilgan. Otasi g'azzol, ya'ni ishchi edi. G'azzoliy taxallusi shundan kelib chiqqan. Ba'zi bir olimlar u G'azolada tug'ilgan, taxallusi shunga oid deb, nisbasini tashdidsiz, ya'ni G'azoliy deb yozadilar, lekin bu ko'pchilik olimlarning fikricha to'g'ri emas.

Otasi Muhammad g'azzol tirikchilik taqozosi bilan ma'lumot ololmagan edi, ammo o'g'illari Muhammad va Ahmadning ma'lumotli bo'lishlarini qattiq istagan edi, shuning uchun olamdan ko'z yumayotib, o'g'illarini bir do'stiga omonat qoldirdi va ularga tahsil berishni o'tinib, iltimos qiladi. Do'sti bu vasiyatni sharaf bilan ado etdi va ikkala o'g'ilga ham yaxshigina tahsil bergach, madrasaga joyladi.

Shunday qilib, aka-uka Tusda Ahmad ibn Muhammad ar-Rozakoniyaning fiqh ilmini o'rganishdi. Keyin Muhammad G'azzoliy Jurjonga kelib, Imom Abu Naor Ismoilidan, Nishopurga borib Imom al-Haromayndan saboqlar oldi.

20 yoshida, ya'ni 1078 yilda domlasi al-Haromayn vafot etgach, Bag'dodga ketdi. Bu paytda u vafot etgan mashhur olimning eng sevimli va zukko shogirdi sifatida el og'ziga tushib ulgurgan edi. Shuning uchun ham u Bag'dodga borganda ulug' vazir Nizomulmulkning qabuliga kira oldi. Nizomulmulk uni olimlar davrasida sinovdan o'tkazdi va hamma saroy olimlarini yengib chiqqan yosh Muhammad G'azzoliyni Bag'doddagi "Nizomiya" madrasasiga, Abu Ishoq ash-Sheroziyning o'rniga bosh mudarris qilib tayinladi.

Adabiyotlar tahlili: Abu Homid G'azzoliy ijodi islom falsafasi va tasavvuf tarixida alohida o'rin egallaydi. Uning "Ihyo ulum ad-din", "Kimyoi saodat", "Mukoshafatul qulub" kabi asarlari asrlar davomida musulmon dunyosida keng o'qib

kelinmoqda. Tadqiqotchilar G‘azzoliyni axloqshunoslik va tasavvuf ilmining yirik namoyandasi sifatida baholaydilar².

Ilmiy adabiyotlarda G‘azzoliy asarlari, xususan “Mukoshafat ul-qulub”, inson ichki dunyosini o‘rganishga qaratilgan axloqiy-falsafiy qo‘llanma sifatida baholanadi. Undagi 40 bobda tavba, sabr, shukr, tavakkul, ixlos kabi fazilatlar hamda kibr, hasad, riyo kabi illatlar tahlil qilinadi. Bu jihat asarni faqat diniy emas, balki tarbiyaviy-psixologik manba sifatida ham ahamiyatli qiladi.

N.Komilov tasavvufiy adabiyotlarni tahlil qilar ekan, G‘azzoliy merosini inson ma‘naviy tarbiyasining muhim manbasi sifatida baholaydi. Olimning yondashuvida tasavvuf inson qalbini poklashga yo‘naltirilgan amaliy-ma‘naviy tizim sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, “Mukoshafat ul-qulub” asari qalb tarbiyasiga bag‘ishlangan muhim manbalardan biri sifatida ko‘rsatiladi³.

A.Hayitmetov va B.Valixo‘jayev kabi olimlar esa G‘azzoliy merosini Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvufiy tafakkur rivojidadagi muhim bosqich sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, bu asarlar o‘zbek adabiy an‘analariga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Zamonaviy tadqiqotlarda Tasavvuf yo‘nalishidagi manbalar G‘azzoliy asarlarini axloqiy psixologiya va ma‘naviy tarbiya tizimi bilan bog‘lab o‘rganmoqda. Bu yondashuv asarning dolzarbligini yanada oshiradi.

“Mukoshafatul qulub” asari qalb ilmi va inson ruhiy olamini tarbiyalashga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Qur‘on oyatlari va hadislar asosida hayotiy pand-nasihatlar berilgan. “Zulmning yomonligi” bobida shunday keltiriladi: “Zolim kimsalar yaqinida qanday oqibatga qarab ketayotganlarini bilib qolurlar”. Zolim kishilar boshqa atrofidagi insonlarga nisbatan zulm, adolatsizlik qilishi mumkin, to‘g‘ri hozir o‘zlarini hammadan ustun ko‘rishadi, lekin shuni bilishmaydiki bu qilgan ishlari uchun qanday jazo, natija kutayotganini.

Kim nafsining istaklariga berilib, dunyo hayotini oxiratdan ustun qo‘ysa, uning joyi albatta do‘zax bo‘lur. Kim esa Parvardigorining qudratidan qo‘rqib, nafsini yomon xohishlardan tiygan bo‘lsa, uning joyi albatta jannat bo‘lur.

Bu asarning birinchi Allohdan qo‘rqish bobida keltirilgan. Har bir kishining eng ojiz jihatlaridan biri nafsdir. Uni jilovlay olish va yaxshi yo‘lga boshqarish qanchalik mushkul bo‘lmasin, ammo uning yakuni go‘zaldir, shuning uchun nafs tarbiyasi inson tarbiyasi ekanligini unutmasligimiz lozim.

² Abu Homid G‘azzoliy. Bidayat al-hidaya. Bayrut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya, 2003.

³ Abu Homid G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. Bayrut: Dar al-Ma‘rifa, 2004.

Metodologiya. Mazkur maqolada tahliliy, qiyemiy-tarixiy va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Asar mazmuni mavzular bo'yicha o'rganilib, ularning hozirgi zamon bilan bog'liqligi tahlil qilindi⁴.

Muhokama: G'azzoliy teran bilimlari, metin irodasi va qattiq ta'sir kuchiga ega bo'lgan xitoboti bilan katta shuhrat qozondi, e'tibor va mehr ko'rdi. Lekin 1096 yilda ko'nglida bir ishtiboh uyg'ondi, o'z-o'zidan norozi bo'lib, mutasavvif bo'lishga ahd qildi. Moli, egallab turgan amali, do'stlarini tark etib, sayohatga chiqdi. U goh u yer, goh bu yerda ko'rinib qolar, goh bedarak yo'qolib ketardi. G'azzoliy jamoatdan, olam tashvishlaridan uzilgan bir holda faqat ilm bilan shug'ullanib, umrining 10 yilini o'tkazdi.

Nizomulmulkning qattiq talabi bilan 1105 yilda Nishopurga kelib, yana madrasada mudarrislik qildi, ammo bu hol uzoq cho'zilmadi. Tusga ko'chib ketdi. Atrofida 300 ga yaqin talaba to'plab, xususiy darslar berdi. G'azzoliy 1111 yilda vafot etgan⁵.

G'azzoliy 53 yillik qisqa umri davomida 100 ga yaqin asar yozib qoldirdi⁶. Ular Islom dinining turli tarmoqlariga taalluqli bo'lib, dalillar qamrovi jihatidan juda katta miqyosga ega. Mazkur asarlar tafsir, hadis, tarix, falsafa, fiqh, tasavvuf olimlari uchungina emas, oddiy insonlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Chunonchi, faqihlar (yuristlar) G'azzoliyning "Bosit", "Vojiz", "Vosid" kabi asarlaridan, mufassirlar, kalom ilmining olimlari "Qavoid al-Aqid", "Ar-Risolat al-Qudsiya", "Al-Iqtisod fil-e'tiqod" singari kitoblaridan, mutasavviflar va umuman barcha haqiqat oshiqalari "Ihyo ulum ad-Din" nomli buyuk asaridan bahramand bo'lsalar, katta ruhiy quvonchni boshdan kechiradilar. Islom raqiblari bilan kurashda uning "Hujjat al-haq", "Mufassil al-Xilof", "Qavosim al-Botiniya" kabi asarlari asqotishi shak-shubhasizdir.

Shuni ham qayd etish lozimki, bu foniy dunyodagi barcha ojiz bandalar kabi G'azzoliy hayotida ham xatolar va ziddiyatlar bo'lgan. Uning hayotida ikki marta shubha inqirozi yuz bergan.

Birinchisi: navqiron yigitlik paytida har narsadan shubha qilgan va o'rgangan ilmlarining hammasida kamchiliklar ko'p deb o'ylagan, egallagan fanlaridan hech qanoatlanmay, o'zicha haqiqat izlay boshlagan. Haqiqat yo tuyg'ularda, yo aniq bilimlarda bo'lishi mumkin, ba'zan ikkovida ham bo'lishi mumkin emasday ko'ringan unga. Dastlab u haqiqat tuyg'ularda deb bilgan, ammo tez orada tuyg'ular aldashi mumkinligini ko'rgan va aniq bilimlar haq degan xulosaga kelgan, ammo so'ng "balki aql ham aldar" deya ishtibohga tushgan. Oxir-oqibatda Allohning

⁴ Abu Homid G'azzoliy. Kimyo-yi saodat. Tehron: Intishorat, 2002.

⁵ Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafatul qulub. Qohira: Dar al-Kutub al- Ilmiyya, 2005.

⁶ Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafatul qulub. Qohira: Dar al-Kutub al- Ilmiyya, 2005.

hidoyati qalbiga yorug'lik berishi bilan ma'naviy ilmlar kabi aniq ilmlar ham haqiqat ekanligiga ishonch hosil qilgan.

G'azzoliyning ikkinchi ruhiy inqirozi 38 yoshida yuz beradi. Kunlardan bir kun u: "butun qilayotgan ishlarim shon-shuhrat, amal-mansab, nufuz, mol-dunyo uchun emasmi ekan?" – degan shubhaga tushadi. "Haqiqat faqat mutasavviflarning yashash tarzida bo'lishi mumkin", degan xulosa uning tinchini buzadi. Shuning uchun u Bag'doddagi madrasani tark etib, faqirona hayot kechirishga o'tadi. Shu asnoda u yeyish-ichishni ham keskin kamaytiradi, oqibatda jismonan zaiflashib ketadi. G'azzoliyning shaxsiy tabiblari nima qilishni bilmas edilar. Shu ahvolda u 10 yil elma-el darbadar kezdi. Bir dafa vazirning so'ziga kirib, Nishopurda ishlagan bo'lsa ham, baribir ishiga qattiq bog'lanmadi, tuzukkina mutasavvifga aylandi, to o'lguncha ko'zga tashlanmay yashadi.

G'azzoliyning falsafiy ishlari ham talaygina. Ularning ichida "Tahofut al-Falosifa" hamda "Maqosid al-Falosifa" asarlari olim ijodida ko'zga ko'ringan o'rinni egallaydi. Bular da Forobiy, Ibn Sino, Abu Hayyon at-Tavhidiy risolalarining ta'sirini ko'rish mumkin.

XULOSA

Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafatul qulub" asari ham ma'rifiy ham ma'naviy, tarbiyaviy jihatdan insonning qalbini poklash uchun hizmat qiluvchi asar desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki bu asar inson doim hayoti davomida kurashadigan nafsini, ichki illatlarini yengib o'tish va haqiqiy shaxs darajada, har jihatdan yetuk bo'lishni, shu bilan birga, Allohga yetaklab, to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi bir vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafatul qulub. Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2005.
2. Abu Homid G'azzoliy. Ihyo ulum ad-din. Bayrut: Dar al-Ma'rifa, 2004.
3. Abu Homid G'azzoliy. Kimyo-yi saodat. Tehron: Intishorat, 2002.
4. Abu Homid G'azzoliy. Bidayat al-hidaya. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2003.
5. Frank Griffel. Al-Ghazali's Philosophical Theology. Oxford: Oxford University Press, 2009.
6. Islom falsafasi tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2008.